

**TEXNOLOGIYA FANIDAN AMALIY MASHG'ULOTLAR JARAYONIDA YOSHLARNI KREATIV  
TADBIRKORLIK TA'LIMIGA YO'NALTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLAR**

Xoliqova Sayyora Kuchkorovna

Guliston davlat universiteti "Texnologik va maktabgacha talim"

kafedrasi o'qituvchisi

**Mavzuning dolzarbligi**

Respublikamizda milliy tarbiya tizimini takomillashtirish, jahon axborot resurslaridan bahramand bo'lishni kengaytirish jarayonida bo'lajak mutaxassislarda o'z kasbiga chuqur layoqatini tarbiyalash va uni takomillashtirib borish ta'lim tarbiya samaradorligini oshirish omili sifatida qaralmoqda.

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonun talablaridan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 7 avgustdagi «Fan va texnologiyalar rivojlanishini muvofiqlashtirish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-436 sonli Qaroriga muvofiq «Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilar ilmiy-ijodiy faoliyatini tashkil etish to'g'risida namunaviy nizom» ishlab chiqildi. Ta'lim tizimida «Texnologiya fanidan amaliy mashg'ulotlar jarayonida yoshlarni kreativ tadbirkorlik ta'limiga yo'naltirish» ta'limni tashkil etish ishlari O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, 2030 yilgacha rivojlanish kontseptsiyasi davlat dasturi, oliy ta'lim muassasasining Nizomi hamda «Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatini to'g'ri tashkil etish to'g'risida»gi namunaviy Nizom asosida muvofiqlashtirilmoqda. Jumladan, «Yoshlar yili davlat dasturining asosiy maqsadi ham yoshlarni xalqimizga xos xususiyat va fazilatlarni namoyon etadigan, uning azaliy orzu-intilishlarini ro'yobga chiqara oladigan, bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi buyuk kuchiga aylantirishda nafaqat o'z kasbini mohir ustasi balki tadbirkorlik qobiliyatlarini rivojlantirib tanlagan kasbi orqali qo'shimcha mablag' topib o'z orzularini amalga oshirishga xizmat qilishdan iborat.

Bugungi kunda o'qituvchilik kasbini ilmiy faoliyatdan ayricha holda tasavvur etib bo'lmaydi. Ta'lim jarayoniga pedagogik va axborot texnologiyalarining kirib kelishi hamda o'qituvchining bu yo'nalishdagi tajriba-sinov ishlari, ularni tizim holiga keltirish, umumlashtirish va amaliyotga tatbiq etish o'qituvchining tadqiqotchilik faoliyati asosidagina o'z samarasini berishi mumkin.

«Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasida «Fan va ilmiy muassasalar milliy istiqloq mafkurasini shakllantirishda muhim o'rin tutadi», deb qayd etilgan. Zero, ilm-fan, texnika va texnologiyalarning rivoji, axborot almashinuv jarayonining tezlashuvi, ijtimoiy munosabatlar mazmunining chuqurlashuvi va mafkuraviy jarayonlarning globallasuvi sharoitida, milliy istiqloq mafkurasining g'oyaviy kuchi - bo'lajak o'qituvchi kadrlarni ilmiy faoliyatga yo'naltirishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

**Tadqiqot ob'ekti** – Texnologiya fanidan amaliy mashg'ulotlar jarayonida yoshlarni kreativ tadbirkorlik ta'limiga yo'naltirish xususiyatini rivojlantirish asosida qo'shimcha daromad topishni o'rgatish xamda fan, ta'limni ishlab chiqarish bilan integratsiyasi jarayonlari.

**Tadqiqot maqsadi** – «Texnologiya fanidan amaliy mashg'ulotlar jarayonida yoshlarni kreativ tadbirkorlik ta'limiga yo'naltirish» asosida o'qitishni metodik jihatdan maqsadga muvofiqligi va uni amalga oshirishni takomillashtirish.

**Tadqiqot vazifalari:**

1. Texnologiya fanidan amaliy mashg'ulotlar jarayonida yoshlarni kreativ tadbirkorlik ta'limiga yo'naltirish asosida ilm bilan ishlab chiqarishni integratsiyasini ta'minlash texnologiyalari asosida o'qitishni tashkil qilish.
2. Texnologiya fanidan amaliy mashg'ulotlar jarayonida yoshlarni kreativ tadbirkorlik ta'limiga yo'naltirish asosida tadbirkorlik qobiliyatini rivojlantirish jarayonini ta'minlashni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishni takomillashtirish.
3. Texnologiya fanidan amaliy mashg'ulotlar jarayonida yoshlarni kreativ tadbirkorlik ta'limiga yo'naltirishda tadbirkorlik qobiliyatini rivojlantirishni ta'minlash texnologiyalari asosida o'qitishni jarayonlarini amaliy metodlarini ochib berish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Yuqorida tahlil etilgan masala kishilik jamiyati taraqqiyotining barcha bosqichlarida mutafakkirlar hamda faylasuf, tarixchi, psixolog va pedagog olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Buni, birinchi navbatda, Sharq allomalari tomonidan yaratilgan ilmiy-axloqiy asarlarda ko'rish mumkin.

Qomusiy olimlar – Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Kaykovus, Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy va boshqalarning barkamol insonning aqliy tarbiyasida ilm-fanning o'rni haqida xamda kasb korlikka yhnaltirishdagi qarashlari bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotgan emas.

Olimlardan G.Yu.Ayzenk, X.F.Rashidov, Asamova R.Z, L.S. Vo'got'skiy, M.G.Davletshin, D. Dyui, V.Karimova, A.N.Markova, V.S.Merlin, L.M.Mitina, R.S.Nemov, A.Palmar, V.V.Pospeev, A.A.Rean, I.E.Rogov, X.A.Ruxieva, S.L.Rubinshteyn, Fridman, E.G'oziev kabilarning tadqiqotlarida ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etishning ijtimoiy-psixologik mohiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, ularda bo'lajak mutaxassislarning kasbiy qobiliyati, ehtiyoji, psixologik xususiyatlari va unga ta'sir etuvchi omillar hamda ijtimoiy muhitning ta'siri masalalariga ham alohida e'tibor qaratilgan.

Bevosita bo'lajak o'qituvchi shaxsini ilmiy faoliyatga tayyorlash masalasi pedagog olimlardan D.Alimova, K.Angelovskiy, S.I.Arangel'skiy, B.Z. Vulfov, V.I.Juravlyov, V.A.Kan-Kalik, L.V.Kondratova, A.I.Kochetov, V.V. Kraevskiy, N.B.Kro'lova, I.P.Pidkasisto'y, R.X.Juraev, B.X.Raximov, V.A.Slastenin, X.A.To'raqulov, B.Q.Kurbonov, I.F.Xarlamov kabilarning ishlarida ham o'rganilgan.

Olib borilgan tadqiqotlardan muhim ilmiy va amaliy xulosalar olingan bo'lsa-da, biroq, «Texnologiya fanidan amaliy mashg'ulotlar jarayonida yoshlarni kreativ tadbirkorlik ta'limiga yo'naltirish» masalasi ilmiy tadqiqotlar natijasida o'zining to'laqonli echimini topgan emas. Xususan:

- pedagogik kasbiga tayyorlash bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalarda bo'lajak o'qituvchilarga tadbirkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonlarida ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish yuzasidan alohida mavzular ajratilmagan;
- pedagogik amaliyotlar dasturida bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik amaliyot jarayonida tadbirkorlikka yo'naltirishni jiddiy tashkil etish ishlariga chuqur e'tibor berilmagan;
- bakalavr o'qituvchilar tayyorlashga oid bitiruv-malakaviy ishlar hamda magistrlik dissertatsiyalari bankiga kasb-xunarga yo'naltirish jarayonida tadbirkorlikka yo'naltirishga oid mavzular to'laqonli kiritilmagan.

**Tadqiqot metodlari:** amaliy-ko'rgazmali, pedagogik kuzatish, anketa, savol-javob, suxbat, ekspert baholash, pedagogik eksperiment, matematik-statistik metod.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

1. Dolzarb pedagogik muammo ekanligini ilmiy jihatdan asoslanadi.
2. Mavjud axvoli va metodik shart-sharoitlarini o'rganiladi.
3. Mazmuni va yo'llari aniqlanadi.
4. Metodlar, shakl va usullari hamda ularning samaradorlik darajasi belgilab beriladi.

**Birinchi bosqich** (2018-2020 yillar)da tadqiqot muammosi mohiyatini yoritishga xizmat qiluvchi nazariy ma'lumotlar to'planadi. Pedagogik va psixologik yo'nalishda mavzu bo'yicha ma'lumot beruvchi ilmiy, ilmiy-ommabop adabiyotlar, o'quv manbalari mazmuni, shuningdek, xorijiy mamlakatlar va mahaliy ta'lim muassasalarining tajribalari o'rganiladi va umumlashtiriladi: dissertatsiya ishining ilmiy asoslari mohiyati belgilab olinadi: tajriba-sinov ishlarini tashkil etish yuzasidan maxsus dastur tuziladi, ishlanmalar ishlab chiqiladi.

**Ikkinchi bosqich** (2020-2022 yillar) da tajriba-sinov maydonlari sifatida belgilangan pedagogika kollejlari kuzatish ishlari amalga oshirildi: o'qituvchi va talabalar bilan uzaro suhbatlar tashkil etiladi, so'rovnomalar o'tkazildi. Pedagogika kollejlari kasbiy ta'lim fanlar mazmunini integratsiyalash bo'yicha ishlab chiqilgan andoza sinovdan o'tkaziladi.

**Uchunchi bosqich** (2022-2024 yillar) da yakunlovchi tajriba-sinov ishlari yo'lga qo'yiladi. Bunda ishlab chiqilgan andoza shuningdek, tajriba-sinov ishlarining natijalari matematik-statistik metod yordamida taxlil etiladi, samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladigan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiya sohalarining mavjud taraqqiyoti zamonaviy jamiyat qiyofasini belgilab bermoqda. Zamonaviy jamiyatning eng muhim xarakterli jihati uning barcha sohalarida globallashuvning ko'zga tashlanayotganligidir. Globallashuv o'z-o'zidan tezkor harakatlanish, zarur axborotlarni zudlik bilan qo'lga kiritish, ularni qayta ishlash va amaliyotga samarali tatbiq qilishni taqozo etadi. Bu tarzda harakatlanish imkoniyatiga o'z sohasining bilimdoni bo'lgan, kasbiy malakalarni yuqori darajada egallay olgan, boy tajriba va mahoratga ega kadrlargina ega bo'ladilar.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologiya fanining tutgan o'rni. Respublikamiz o'qituvchilari oldida umumiy ta'lim, hunar maktabini isloh qilish, yangi davr talabiga mos etuk kishilarni, bozor iktisodi talabiga javob beradigan ta'lim-tarbiya jarayonini yanada takomillashtirish, maktab xaqidagi kontseptsiyani amalga tadbiq qilishdek muhim vazifalar turibdi. Birinchi darajali vazifa o'rta maktabni bitirgan o'quvchilar fan asoslaridan chuqur bilim olishlari, ommaviy ishchi kasblaridan 2-3 tasini egallashlari, o'qish bilan birga ishlab-chiqarishda ham ishtirok etishlari lozim. O'quvchilarni mehnat va kasb olamiga olib kirishning har-xil yo'llari orasida "Texnologiya" fani muhim o'rin tutadi. Uning metodikasini takomillashtirish, moddiy jihozini mustahkamlash, maktabni o'z atrofidagi sanoat ishlab chiqarish sohasi bilan aloqasini mustahkamlash, ijtimoiy foydali, unumli mehnatni tashkil etish, uning tarbiyaviy iktisodiy samaradorligini oshirish, ta'lim bilan qo'shib olib borish, o'quvchilarni mehnatga tayyorlashni yaxshilash bilan shug'ullanadi. Texnologiya fani darsi maktabdagi boshqa fanlar uchun umumiy didaktik printsiplarni qo'llasada, uning o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud. O'quvchilar bilish faoliyati bilan emas, balki yaratish faoliyati bilan shug'ullanadilar. Texnologiya fani predmetlari, kurollari, jarayonlari oddiy o'rganish ob'ekti sifatida emas, balki o'quvchilar ishlarini faollashtiruvchi

ko'rsatmalilik vositasi, didaktik material, ta'limning texnik vositasi sifatida xizmat qiladi. Texnologiya fani o'quv fani sifatida ana shu va boshqa xususiyatlarini o'rgatadi. Mustaqillik yillarida mamlakatda huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati qurishga, erkin bozor munosabatlariga va xususiy mulk 39 ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirishga, xalq osoyishta va farovon hayot kechirishi uchun shart-sharoitlar yaratishga, ta'lim, madaniyat, ilmfan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirishga, xalqaro maydonda O'zbekistonning munosib o'rin egallashiga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Modulli ta'lim texnologiyasi (modul va modullar dasturi) Modulli o'qitish – o'qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u ta'lim oluvchilarning bilim imkoniyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimiga eng yaxshi moslashgandir. An'anaviy ta'limda o'quv maqsadlari pedagog faoliyati orqali ifodalangan ya'ni bilim berishga yo'naltirilgan bo'lsa, modulli o'qitishda ta'lim oluvchilar faoliyati orqali ifodalanib, kasbiy faoliyatga yo'naltirilgan bo'ladi. An'anaviy o'qitish texnologiyasiga asoslangan Modulli o'qitish texnologiyasiga asoslangan Bir tomonga yo'naltirilgan axborot Fikrlash va amaliy faoliyat orqali tahsil olishda faol ishtirok etishni rag'batlantirish Bir tomonlama muloqot (darslik→o'qituvchi→ o'quvchi) Ikki tomonlama muloqot Axborot olish Tahlil qilish orqali ma'lumotni eslab qolish Xotirada saqlash Bilim va ko'nikmalarni namoyish etish Ma'nosini tushunmagan holda mexanik tarzda yodlash Mazmuni tushunish va hayotga bog'lash Ushbu jadvalning tahlili shuni ko'rsatadiki, modulli texnologiyaga asoslangan ta'lim an'anaviy ta'limdan o'qitish usullari va vositalari uni tashkil etish va natijalari bilan sezilarli farq qiladi. Modulli o'qitish ta'limning quyidagi zamonaviy masalalarini har tomonlama echish imkoniyatini yaratadi. modul – faoliyatlik asosida o'qitish mazmunini optimallashtirish va tizimlash dasturlarini o'zgaruvchanligi, moslashuvchanligini ta'minlaydi; o'qitishni individuallashtirish; amaliy faoliyatga o'rgatish va kuzatiladigan xarakterlarni baholash darajasida o'qitish samaradorligini nazorat qilish; kasbga qiziqtirish asosida faollashtirish mustaqillik va o'qitish imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarish. Modulli o'qitish samaradorligi quyidagi omillarga bog'liq: ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasi; malakali o'qituvchilar tarkibi darajasi; o'quvchilar tayyorgarligi darajasiga; kutiladigan natijalar bahosiga; 99 didaktik materiallarning ishlab chiqilishiga; modullar natijasi va tahliliga. Modulni o'qitishning samaradorligini oshirishga erishish uchun o'qitishning quyidagi usullarini qo'llash mumkin: muammoli muloqotlar; evristik suhbatlar; o'quv o'yinlar; loyihalash va yo'naltiruvchi matnlar va hokazo. O'quv materialining o'zlashtirilishiga mashg'ulotlar paytida modulning amaliy ahamiyati qay darajada ochib ko'rsatilganligi modul mazmunining boshqa modullar bilan bog'liqligi shu modulni o'rganishdagi o'quvchilarning bir xil xatoliklari tahlili muhim ahamiyatga ega.

Uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlashni integratsiyalash tizimi TG'r Tizim elementlari 1. Integratsiyalash turlari 1. Umummetodologik. 2. Umumilmiy. 3. Xususiy ilmiy. 4. Muammoli. 105 5-jadval davomi Uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlashni integratsiyalash tizimi TG'r Tizim elementlari 2. Integratsiyalash yo'nalishlari 1. O'qituvchilarining kasbiy nufuzini oshirish. 2. Davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini rivojlantirish. 3. Ta'limda zamonaviy texnologiyalarini qo'llash. 4. Ta'limni fan-texnika va ishlab chiqarish bilan integratsiyalash. 5. Ta'limi jarayonida tadbirkorlik, kichik va xususiy biznesni rivojlantirish. 6. Chet el hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish va rivojlantirish. 3. Integratsiyalash funktsiyalari 1. Metodologik. 2. Kasbiy (kasbga) yo'nalganlik. 3. Muammoli rivojlantiruvchi. 4. Bir butunlik. 5. Tizimlashtirish. 6. Kommunikativ. 7. Tashkilotchilik. 4. Integratsiyalash tendentsiyalari 1. Ta'limning ustivorligi. 2. Ta'limning demokratlashuvi. 3. Ta'limning insonparvarlashuvi. 4. Ta'limning ijtimoiylashuvi. 5. Ta'limning milliy yo'naltirilganligi. 6. Ta'lim va

tarbiyaning uzviy bog'liqligi. 5. Integratsiyalash darajalari 1. Bir butunlik. 2. Didaktik sintez. 3. Fanlararo bog'liqlikni ta'minlash. 6. Integratsiyalashni amalga oshirish formalari 1. An'anaviy. 2. Noan'anaviy. Xulosa qilisan. Texnologiya fanini boshqa fanlar bilan o'zaro integratsiyasini ta'minlash masalalari Integratsiya – fanlararo bilimlarni (integrativ bilimlarni) chuqurlashtirish va oshirish, ularni shakllantirish uchun xizmat qiladi. U har xil turlar, usullar, uslublar, fanlararo integratsiya ob'ektlari asosida tashkil etiladi. Integratsiya asosida fanlarni sinflarga bo'linishini turli xil tatibda tashkil qilish mumkin: maqsad va muammolar asosida; maktab tabiiy-ilmiy tizimidagi vazifalari asosida; qo'shiluvchi fan tarmoqlari asosida; integratsiya usullari va yo'llari asosida; o'quv rejasidagi o'rni asosida; darsni o'rganishga sarflangan vaqt asosida; o'quvchilar uchun qiyinlik darajasi asosida va h.k. Shuni e'tiborga olish kerakki, bunday darslarni tashkil qilishda fan o'qituvchilari o'z oldilariga bir necha maqsad va muammolarni echish masalasini qo'yishlari lozim. Shu sababli tashkil etiladigan darslar ko'p maqsadli, turli vazifali bo'ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Avliyakov N.X., Musaeva N.N. Modulli o'qitish texnologiyalari. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2007. – 97 b.
2. Ganieva M.A., Fayzullaeva D.M. Keys-stadi o'qitishning pedagogik texnologiyalari to'plami G' Met.qo'll. “O'rtamaksus, kasb-hunar ta'limi tizimida innovatsion texnologiyalar” seriyasidan. – T.: TDIU, 2013. – 95 b.
3. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limdainnovatsion texnologiyalar G' Amaliy tavsiyalar. – T.: “Iste'dod” jamg'armasi, 2008. – 180 b.
4. Olimov Q.T. Pedagogik texnologiyalar. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2011. – 275 b.
5. Ro'zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi G' Metod.qo'll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013. – 115 b.
6. Sayfurov D. Malaka oshirish tizimida masofaviy ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari G'G' Kasb-hunar ta'limi j. – T.: 2002. - №5- 6. – 28-29-b.
7. Sayfurov D. Masofadan o'qitish tizimining shakllanishi va rivojlanishi G'G' Kasb-hunar ta'limi j. – T.: 2004. - №6. – 16-20-b.
8. Fayzullaeva D.M., Ganieva M.A., Ne'matov I. Nazariy va amaliy o'quv mashg'ulotlarda o'qitish texnologiyalari to'plami G' Met.qo'll. O'rta maksus, kasb-hunar ta'limida innovatsion ta'lim texnologiyalari seriyasidan – T.: TDIU, 2013. – 137 b.